



QADIMGI TURKIY MATNLARDA RAVISH SO‘Z TURKUMINING IFODALANISHI

Ibodullayeva O‘g‘iloy

Samarqand davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada qadimgi turkiy tildagi ravishlarning qo‘llanilishi, ularning semantik turlari hamda yasaliş xususiyatlari tarixiy matnlar asosida tahlil qilinadi. Qadimgi bitiklarda uchraydigan tub va yasama ravishlarning holat, payt, o‘rin, miqdor-daraja va maqsad ma‘nolarini ifodalashi misollar orqali yoritilgan. Shuningdek, ravishlarning o‘sha davrdagi shakli bilan hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘rinishlari o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatib beriladi. Matnda ravishlarning affiksatsiya yo‘li bilan yasaliş, xususan “-ca/-ce” qo‘shimchasi yordamida hosil bo‘lgan shakllarning vazifasi misollar yordamida izohlanadi. Tadqiqot qadimgi turkiy til ravishlarining funksional imkoniyatlarini va ularning tarixiy rivojlanish jarayonidagi o‘zgarishlarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *qadimgi turkiy til, ravish, tub ravish, yasama ravish, holat ravishi, payt ravishi, affiksatsiya*

Ravish so‘z turkumining boshqa so‘z turkumlaridan farqlanuvchi asosiy xususiyatlaridan biri uning so‘z o‘zgartuvchi affikslarni qabul qilmasligidir. Ravishlar hozirgi o‘zbek tilidagi kabi qadimgi turkiy tilda ham holat, payt, o‘rin, miqdor-daraja, maqsad kabi ma‘nolarni ifodalab kelgan. O‘sha davrdagi tarixiy matnlarga nazar tashlasak, ayrim ravishlarning bugungi kunda mavjud emasligi, shuningdek, yasalişida tuzilişida ham o‘zaro farqlar borligini ko‘rishimiz mumkin. Quyida esa ayrim tarixiy matnlarda ravishlarning ifodalanishini ko‘rib o‘tamiz.

Tört bulung qop yag‘i ärmis sü süläpän tört bulungdaqı bodunug‘ qop almıs, qop baz qılmıs, baslıg‘ıg‘ yüküntürmis, tizligig sökürmis. Ilgärü Qadırqan yısqa tägi, kirü Tämir qapıg‘qa tägi qonturmıs.(Rahmonov N., Sodiqov Q.O‘zbek tili tarixi. 170-bet.)[To‘rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib to‘rt tarafdagi xalqni butunlay olgan(lar), butunlay qaram qilgan(lar), boshi borni ta‘zim qildirgan(lar), tizzasi borni cho‘ktirgan(lar).Sharqqa – Qadirqan yishga qadar, g‘arbga – Temir qopiqqacha manzil qildirgan(lar)]. Ushbu gapda uch o‘rinda qatnashgan qop - butunlay ravishi tub ravish bo‘lib, holat ravishi bo‘lib kelyapti.

Ol törüdü üzä äcim qag‘an olurti. Äcim qag‘an olurupan türük bodunung yicä itdi, igit(t)i, cıg‘anıg‘...(Rahmonov N., Sodiqov Q.O‘zbek tili tarixi. 171-bet.)[O‘sha hukumat boshiga amakim xoqon bo‘lib o‘tirdi. Amakim xoqon o‘tirib xalqni yaxshilab oyoqqa turg‘izdi, tarbiyaladi, qashshoqni...]. Yuqoridagi gapda qo‘llangan yicä – yaxshilab ravishi ham holat ravishini fodalab kelgan.



Barduq yärdä ädgüg ol ärine: qanëing subca yügürti, sönüküng tag'ca yatdı, bāgılgı urı oglung qul boltı, silig qız oglung küng boltı bilmädük ücün... (Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. 172-bet.) [Borgan yerda ezgulik shu bo'lsa kerak: qoning suvday oqdi, suyaging tog'day (uyulib) yotdi, bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, suluv qiz bolang cho'ri bo'ldi. (Buni) bilmagani uchun...]. Gap tarkibidagi subca – suvday, tag'ca – tog'day ravishlari yasama ravishlar bo'lib, holat ravishi bo'lib kelgan. Affiksatsiya usulida yasalgan ushbu ravishlarning yasovchisi -ca – day affiksi hisoblanadi.

Kül tigin yadag'in oplayu tägdi. Ong tutuq yorcın yaraqlig äligin tutdı, yaraqlig'di qag'anqa anculadi. Ol süg anta yoqqisdimiz. Bir otuz yasinga Caca Süngä süngüsdimiz. Äng älki Tadqas(?) Coring boz... (Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. 172-bet.) [Kul tigin yayov otilib hujum qildi. O'ng tutuq yo'l boshchisini yaroqli qo'li bilan tutdi, yaroqlangan holda xoqonga tortiq qildi. U cherikni o'shanda yo'q qildik. Yigirma bir yoshida Chacha Sunga urush qildik. Eng avval Tadqush cho'ming bo'z...]. Bu gapda qo'llangan yadag' – yayov, älki – avval ravishlari tub ravishlar bo'lib, birinchisi holat, ikkinchisi payt ravishini ifodalab kelgan.

Ärtis ögüzüg kää yoridimiz. Türgäs bodunug' uda basdimiz. Türgäs qag'an süsi Bolucuda otca borca kälti, süngüsdimiz. Kül tigin Basg'u boz at binip tägdi. (Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. 173-bet.) [Ertis daryosini kechib yuridik. Turgas xalqini qo'qqisdan bosdik. Turgas xoqon lashkari Bo'luchuda o'tday-bo'rounday keldi, jang qildik. Kul tigin Bashg'u (otli) bo'z otini minib hujum qildi]. Ushbu gapda esa uda – qo'qqisdan ravishi tub ravish bo'lib, holat ravishini ifodalab kelgan. Otca borca – o'tday-bo'rounday juft ravishi –ca - day affiksi asosida yasalgan bo'lib, holat ravishi bo'lib kelgan.

Qadimgi turkiy til manbalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ravishlar ushbu davr til tizimida muhim sintaktik birliklardan biri bo'lgan. Ular holat, payt, o'rin, miqdor-daraja kabi ma'nolarni ifodalashda faol qo'llanib, nutqda harakatning turli jihatlarini aniqlashtirish vazifasini bajargan. Tarixiy matnlarda uchraydigan tub va yasama ravishlar hozirgi o'zbek tilidagi ravishlar bilan bir qator umumiyliklarga ega bo'lsa-da, ayrim shakllarning bugungi kunda qo'llanmay qolganligi yoki ma'no va tuzilish jihatidan o'zgarishi kuzatiladi. Ayniqsa "-ca/-ce" affiksi yordamida yasalgan ravishlarning faol qo'llangani qadimgi turkiy tilning derivatsion imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Umuman olganda, qadimgi turkiy til ravishlari mazmun va shakl jihatidan boy tizim bo'lib, ularning o'rganilishi hozirgi o'zbek tili grammatikasining tarixiy ildizlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009, 170-173-betlar.



2. Абдурахмонов Н. Қадимий туркий тили. Тошкент “Ўқитувчи” 1989. - 157 б.
3. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимий туркий тили. Тошкент “Ўқитувчи” 1982. - 164 б.
4. Азимов И., Рахматов М. Қадимий туркий тили. Тошкент: 2005. - 134 б.
5. Қ. Содиқов. Көк турк битиклари: матн ва унинг тарихий талқини. Тошкент, 2004, - 144б.